

**RAUF PARFI IJODINING
MA'NAVIIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

RAUF PARFI IJODIY MAHORATI

Quchmurodova Xusniya Xurram qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti

3-bosqich talabasi

E-mail: xusniyaquchmurodova@gmail.com

***Annotatsiya:** She'rdagi barcha badiiy san'atlarni o'z o'rnida qo'llay olish, o'xshatishlarni ishlatishda serqirralik ijodkordan katta mehnat talab etadi. Shoir she'r yozishni boshlar ekan ma'lum bir qoidalarga bo'ysinadi. She'r o'z qolipida ishlatilmasa bu she'rning saviyasi yaxshi bo'lmaydi. Shakl va mazmuni yaxshi she'r yetuk she'r bo'ladi. Bu maqolada Rauf Parfi ijodidagi she'rlarni tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** Nido, mukarrar, anafora, tashxis, tajnis.*

She'riyat dunyosi shunday dunyoki hamma ham u yerda yasholmaydi. She'riyat shunday bog'ki har kim bu bog'dan gul uzolmaydi. She'r bu shoirning farzandi kabi tug'ilib, farzand kabi qadrli bo'ladi. Har shoirning o'z uslubi o'z yo'nalishi bo'ladi. Mana shunday o'ziga hos yo'nalishi va o'ziga hos uslubi bo'lgan adiblardan biri shoir va tarjimon Rauf Parfidir.

She'r bu inson qalbining oynasidir. Yurakdan chiqadigan dil so'zlardir. Shoir o'z hissiyotlarni uzoq so'zlagandan ko'ra to'rt qator she'rdagi jamlay olishi haqiqiy mahoratdir. O'zbek shoiriyatida qanchadan qancha buyuk shoirlar o'tdi. Ular bu foniy dunyodan rixlat qilganiga yillar bo'lgan bo'lsada she'rlari, tarjimalari, qoldirgan ilmiy me'rosi hamon barhayotdir. She'riyatimizda o'ziga o'chmas iz qoldirgan shoirlardan biri Rauf Parfidir. Uning „Aks-sado“, „Ko'zlar“, „Xotirot“, „Sukunat“, „So'nggi vido“, „Sakina“ va „Qaytish“ kabi she'riy to'plamlari nashrdan chiqqan. Rauf Parfi she'rlarida turli badiiy san'atlardan foydalangan. Uning ijodidagi ajoyib she'rlardan birini bo'lgan „Yana qaytib keldim...“ she'rini tahlil qilib ko'rsak:

Qaytib keldim yana. Chang to'zgan

Yo'limizni sog'indim, ona.

Tom ustida maysalar o'sgan

Uyimizni sog'indim, ona.

Biz olis safarlarda qancha uzoq yursak yurtimizni, tug'ilib o'sgan yurtimizni, uyimizni sog'inchi shuncha ortib boraveradi. Shoir ushbu misrada sog'inchini „Chang to'zgan yo'limizni sog'indim...“ deb ifodalaydi. Hatto chang bosgan yo'llar ham shoir uchun qadrli. Bu misrada ona so'zi nido¹ vazifasida kelgan. Nido bu- „Insonning ichki tuyg'ularni po'rtana misoli junbushga kelganida lirik qahramon olamidagi har qanday narsa-hodisalarga, tabiatdagi

¹Boqijon To'xliboyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova „Adabiyot“ 10-sinf uchun maktab darsligi Toshkent „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti 2017-yil 181-bet

**RAUF PARFI IJODINING
MA'NAVIIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

istalgan narsaga, o'zining qalbiga, suhbatdoshiga murojat etishi mumkin" Rauf Parfi bu misrada o'z onasiga murojat qilib dildagi sog'inchini bayon qilyapti.

*Aziz dargoh ostonasida
Sizni qalbim bilan quchayin.
To'yib-to'yib sopol kosada
Muzdek quduq suvin ichayin.*

Shoir uyining ostonasini „aziz dargoh” deb ataydi. Qalbi sog'inchini ifodalash maqsadida onasini qalbi bilan quchishini aytadi. Ehtimol bu she'r yozilganida uning onasi bu dunyoda bo'lmagandir. Shu sabab qalbi bilan quchishini atayotgandir. To'yib-to'yib so'zi takror bo'lgani sababli mukarrar san'atini hosil qilgan. Bu badiiy san'at turi takkror bo'lgan so'zlarni ishlatish orqali hosil bo'ladi. Muzdek quduq suvi aslida mehr ma'nosida kelgan bo'lishi mumkin. Shoir shu suv kabi onasining, uyining mehriga tashna.

*Har bir narsa yaqindir menga,
Har bir narsa menga qadrdon.
Qarab qoldingizmi yo'limga
Issiq nonlar uzib tandirdan?*

Yuqoridagi ikki misradagi „Har bir narsa” so'zlari takrorlangan. Buni anafora deb ataymiz. „Anafora-she'riy misralarning yoki nasriy gaplarning boshida bir xil so'z va iboralarning, tovushlarning takrorlanib kelishidan hosil bo'ladi.”² Shoir onasining yo'liga qarab qolganini aytadi. Bizga ma'lumki uyimizdan uzoqlashsak birinchi onamiz bizni sog'inadi. Uyga qaytganimizda shoir aytganidek, nonlar uzib onalar bolasini kutadi.

*Koyimangiz meni bu safar,
Unutdi deb uyni, dalamni,
Ne chora bor, dil yonsa agar,
Dil sog'insa turkiy olamni.*

Shoir qancha uzoqlarga ketsa ham uyini, dalasini unutmaganini aytadi. „Dil sog'insa turkiy olamni”bu misrada tashxis san'ati qo'llangan. „Tashxis (ar-jonlantirish, shaxslantirish)-hayvonlar, qushlar, o'simliklar va jonsiz narsalaga insonning xususiyatlarni ko'cherish san'ati.”³

*O, qishloqning munis chiroyi,
Achchiq piyoz to'g'rayin o'zim.*

² Hotamjon Umarov „Adabiyot qoidalari” 134-bet

³ Dilnavoz Yusupova „Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari” TOSHKENT „TA'LIM MEDIA” NASHRIYOTI 2019-yil169-bet

**RAUF PARFI IJODINING
MA'NAVIIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

*Dil sog'inib yig'ladi doim,
Hozir, mayli, yig'lasin ko'zim.*

Qahramon sog'inib ko'p yig'lagani aytib, hatto achchiq piyoz to'g'rashga ham rozi bo'lganini ayatadi. „Hozir mayli yig'lasin ko'zim” so'zlari esa yana tashxis san'atini hosil qilyapti. Rauf Parfi she'rlariga e'tibor bersak tashxis san'ati ko'pbora qo'llangan.

*Targ'illanib bormoqda osmon,
Oppoq hidga to'lmoqda bag'rim.
Aytingiz-chi, bormi sog'-omon,
Shahlo ko'zli mening targ'ilim?*

Rauf Parfi so'zlarni o'z o'rnida maromiga yetkazib qo'llay olgan. Ushbu baytdan ham bu bilishimiz mumkin. Targ'illanib ya'ni turlanib degan ma'noni bersa, misra oxiridagi targ'il so'zi shevada sigir degan ma'noni beradi. Ma'nodosh so'zlarning baytda qo'llanishi tajnis sa'nati bo'ladi. Tajnisni «jinos» ham deyishadi. „«Tajnis» ning ma'nosi «biror narsa bilan o'xshash bo'lmoq»dir. Jinos esa «hamjins» degan ma'noni bildiradi. Atama sifatida u talaffuz va shaklda bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlarni turli ma'nolarda qo'llashni anglatadi”⁴.

*Og'ushimda zangori sezgi,
Kiprigimda suyuq hayajon.
Ko'zlarimda yumaloq sevgi,
Salomatman men ham, onajon.*

Shoir bu yerda ajoyib o'xshatishlardan foydalangan. Hayojon kipriktan sezib olish ancha mushkil, ammo shoir „Kiprigimda suyuq hayajon” deb ifodalagan. Sevgini yumaloq deb o'xshatish ishlatadi. Bu baytda nido qo'llangan. Onajon so'zi nido bo'lib kelgan.

*Qaytib keldim yana. Chang to'zgan
Yo'limizni sog'indim, ona.
Tom ustida maysalar o'sgan
Uyimizni sog'indim, ona.*

Ushbu bayt she'rning boshida ham kelgan edi. Bu bilan shoir bizga yana bir bor uyini, onasini sog'inganini ta'kidlayapti. Rauf Parfi sog'inchini ifodalash uchun cahng to'zgan yo'llarni ham sog'inganini ayatadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Rauf Parfi ajoyib shoir va mohir tarjimondir. Uning yozgan har bir satri o'quvchini chuqur o'yg'a toldiradi. E'tibor

⁴Boqijon To'xliboyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova „Adabiyot” 10-sinf uchun maktab darsligi Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti 2017-yil 173-174-betlar

**RAUF PARFI IJODINING
MA'NAVIIY-MA'RIFIY AHAMIYATI**
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

bersak, Rauf Parfi she'rlarida har bir detallarga alohida urg'u beradi. Bir o'rinda foydalangan detaldan keyingi misrada foydalanmaydi. Balki yana o'zgacha fantaziyalar bilan yondoshadi. Rauf Parfining barcha tarjimalari bugungi kunda ham muxlislar tomonidan sevib o'qiladi. Bunga misol tariqasida u tarjima qilgan Bayronning „Manfired“, Nozim Hikmatning „Inson manzaralari“, Karlo Kaladzening „Dengiz xayoli“ asarlarini aytishimiz mumkin. Bu tarjimalar Rauf Parfini tarjimon sifatida mashhur qildi. Bu kitoblar o'zbek kitobxonlari orasida sevib mutolaa qilinadi. Shoirning o'zbek she'riyatiga mana shunday bebaho meroslaridan qoldirgan. Rauf Parfi she'rlarida vatanga muhabbat, inson erkinligi kabi tuyg'ular yetakchilik qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boqijon To'xliboyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova „Adabiyot“ 10-sinf uchun maktab darsligi Toshkent „ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti 2017-yil 181-bet
2. Hotamjon Umarov „Adabiyot qoidalari“ 134-bet
3. Dilnavoz Yusupova „Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari“ TOSHKENT „TA'LIM MEDIA“ NASHRIYOTI 2019-yil 169-bet
4. Boqijon To'xliboyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova „Adabiyot“ 10-sinf uchun maktab darsligi Toshkent „ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti 2017-yil 173-174-betlar